Dunyoni yangi pandemiya kutmoqdami? Fanlar akademiyasi xantavirus haqidagi vahimali xabarlarga oydinlik kiritdi

So‘nggi kunlarda ijtimoiy tarmoqlarda “odamdan odamga yuquvchi yangi xavfli virus” haqidagi xabarlar tarqalib, ko‘pchilikda “koronavirus davri qaytmoqdami?” degan xavotirlarni uyg‘otmoqda. Vaziyat aslida qanday?

Kemadagi voqea: “Andes” shtammi nimasi bilan farq qiladi?

May oyi boshida Atlantika okeanida harakatlanayotgan xalqaro kemalardan birida xantavirus tarqalgani rost. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) bunga xantavirusning faqat Janubiy Amerikaga xos bo‘lgan “Andes” (Andes virus) shtammi sabab bo‘lganini tasdiqladi.

Bu shtamm haqiqatan ham odamdan odamga yuqish xususiyatiga ega. Biroq buning uchun oddiy yo‘talish kifoya qilmaydi. Virus faqat o‘ta yaqin va uzoq muddatli muloqotda (masalan, bitta kayutada yashaganda yoki himoyasiz bemorga qaraganda) yuqadi. U gripp yoki COVID-19 kabi havo orqali zanjirdek tez tarqalib ketmaydi. Shu bolat xalqaro ekspertlar dunyo aholisi uchun xavf darajasini o‘ta past deb baholamoqda. Yangi global pandemiya haqida gap-so‘z bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekistonliklar xavotir olishiga asos bormi?

Yo‘q, chunki yurtimizda vaziyat butunlay boshqacha:

Bizda bu shtamm yo‘q: O‘zbekistonda odamdan odamga yuquvchi “Andes” shtammi umuman mavjud emas va tarixda hech qachon qayd etilmagan.

Mahalliy viruslar xavfsiz: Bizning mintaqamizdagi xantaviruslar hech qachon odamdan odamga yuqmaydi. Infeksiya manbai faqat yovvoyi kemiruvchilar (sichqon va kalamushlar) bo‘lib, virus faqat ularning chiqindilari aralashgan changni yutganda yoki sifatsiz saqlangan ovqat orqali yuqishi mumkin.

Fanlar akademiyasi olimlari va Sog‘liqni saqlash vazirligi yurtimizdagi tabiiy o‘choqlarni doimiy nazorat qilib bormoqda. Vaziyat to‘liq barqaror.

Nima qilish kerak?

Vahimaga berilmasdan, oddiy gigiyena qoidalariga amal qilish kifoya:

- Uzoq vaqt yopiq turgan dala hovli yoki yerto‘lalarni tozalaganda albatta niqob taqish va chang ko‘tarmaslik uchun namlab tozalash;
- Oziq-ovqatlarni kemiruvchilar tega olmaydigan yopiq joylarda saqlash.

Fanlar akademiyasi ommaviy axborot vositalari va blogerlarni internetdagi shov-shuvli sarlavhalarga uchmasdan, faqat rasmiy ilmiy ma’lumotlarga tayanishga chaqiradi.